

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM JARAYONIGA TEXNOLOGIK YONDASHUV

¹D.A.Ergasheva,

²S.Z.Yusupova,

Bayovut tumani 29-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari,
maktab29*b2@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7527857>

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari, uning ta'lif sifati va samaradorligini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan. Ta'lif jarayoniga texnologik yondashuv qoidalari, uni samarali tashkil etish shakl, vosita va metodlari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, ta'lif jarayoniga zamonaviy, texnologik yondashuv, axborot kommunikatsion vositalar, interfaol metodlar.

Boshlang'ich sinflarda ta'lif jarayoniga o'quvchilar qiziqishini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod – ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari – norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishslash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchiligi millatimiz bolalarining psixologik o'ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to'liq hisobga olishga erisha olinmayotganida, deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o'quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan. Holbuki, o'quvchini o'qitish kerak emas, uni o'zini o'qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki bolaning o'zi izlanmas ekan, ta'lilda yutuqqa erishish mumkin emas. Boshlang'ich ta'lif berishda axborot texnologiyalarining imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan, statik va dinamik rejimi to'zilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta'minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o'z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko'rinishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm, va hokazo) bera oladigan, o'quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o'z ustida

mustaqil ishlashi va o‘z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo‘llaniladigan interfaol materiallarni o‘z ichiga oladi.

Interfaollik bu – o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bundan o‘quv-biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o‘qituvchi-o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi-o‘quvchi suhbatlarida sodir bo‘ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi – o‘quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. O‘zaro fikr almashish jarayoni hosil bo‘ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do’stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladigan.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim o‘z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media – ta’lim metodlaridan iborat. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Interfaol o‘yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlii) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘sislarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularni turi yo‘lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan, interfaolikkka asoslangan didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofikdir. Ta’limni insonparvarlashtirish va axborotlashtirish bilan bog‘liq muhim vazifaning yechimi o‘quvchilarda muloqotga kirishishga oid bilimdonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Bugungi kunga kelib o'quvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimdonligi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga kuchli ehtiyoj tug'ilmoqda. Bu o'z navbatida, ta'lif mazmunini loyihalashga bo'lgan yondashuvni ham o'zgartirishni talab qiladi. Mazkur muammoni yechish uchun hozirgi zamon kishisining ehtiyojlarini aniq hisobga olish lozim. Chunki eskirib qolgan yo'llar bilan davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ta'lif jarayonini tashkil etish mumkin emas.

Birinchi navbatda, taqdim etiladigan ta'lif mazmunining asosiy mohiyati va maqsadini aniqlash lozim. O'quv materiallari va ta'lif mazmunining minimal hamda maksimal darajalarini tanlashda ta'lif mazmunini modernizatsiyalashning konseptual asoslariga tayaniladi. O'quvchilarga taqdim etiladigan bilimlarni turli o'quv fanlarini integratsiyalash asosida uyg'unlashtirish ularga o'zbek xalqining qadriyatlarini egallashga yo'naltiradigan bilimlar va axborotlarni singdirish hissiy hamda ijodiy faoliyat tajribasiga asoslanish nihoyatda zarur. Ta'lif mazmunining ushbu elementlarini barcha o'quv predmetlari mazmuniga singdirish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirish, ularning mazmunini idrok etish, bilish ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

So'nggi 3 yil davomida ta'lif bir necha bor masofali o'qitish yoki gibridd tizimiga o'tkazildi. Bu jarayonda esa masofaviy nazariyasi va amaliyoti boy chet el va milliy tajribalar tadqiqotlar yo'nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi. Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lif olish usulidan biri hisoblangan masofali ta'lif mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta'lifning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o'qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta'lifni isloh qilish sharoitlarida milliy ta'lif tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak.

Chet el ta'lif tizimlarida masofali o'qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o'rganishda ta'lif muassalarida masofali o'qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta'lifni didaktik ta'minlash vositalarini tahlil qilishga e'tiborni qaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lifning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishslash ta'lifning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishslash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetlik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash,

kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qaabul qilish, guruh yoki
mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Q. va boshq. 2- sinfda o'qish darsligi. -T., 2004
2. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent. 2006.
3. Abdullayeva Q. va boshq. Ona tili. - T., "O'qituvchi", 1999
4. Bo'ri Ziyamuhamedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. – Toshkent, 2009.
5. Kitobim-oftobim. -Toshkent, «O'qituvchi», 2008